

## ОЗИQ-OVQAT NOMLARI ISHTIROKIDAGI MAQOLLARNING USLUBIY VA FUNKSIONAL JIHATLARI

**Buxoro xalqaro universiteti**

**O'qituvchisi :**

**M.O.Baratova f.f.f.d.(PhD)**

[muhibabarotova1@gmail.com](mailto:muhibabarotova1@gmail.com)

**2-kurs magistranti;**

**Yunusova Kamola Ganjiyevna**

**Yunusovakamola1@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek paremiologik fondida oziq-ovqat leksemalari ishtirok etgan maqollarning lingvistik, uslubiy va pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqola uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: oziq-ovqat nomlarining metaforik ko'chirlari, ularning turli nutq uslublarida (badiiy, publitsistik, so'zlashuv) qo'llanilishi hamda muloqot jarayonidagi kommunikativ-pragmatik vazifalari. Tadqiqot natijasida oziq-ovqat nomlari shunchaki moddiy ne'mat emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi lingvokultural o'zak ekanligi isbotlanadi.

**Kalit so'zlar:** Paremiologiya, metafora, lingvokulturologiya, funksional uslublar, pragmatika, oziq-ovqat leksemalari, kommunikativ maqsad, obrazlilik.

**Abstract:** This article is a linguistic, methodological and pragmatic study of proverbs in the Uzbek paremiological fund with the participation of food lexemes. The article covers three family areas: metaphorical transfers of food product names, communicable-pragmatic products in the process of communication with the public in

legal speech styles (artistic, publicistic speech). Statistical evidence proves that food names are not material material goods, but linguocultural cores that regulate social relations.

**Key words:** Paremiology, metaphor, linguistic culture, functional style, pragmatics, intellectual lexemes, communicative language, imagery.

**Аннотация:** Данная статья представляет собой лингвистическое, методологическое и прагматическое исследование пословиц в узбекском парамиологическом фонде с участием пищевых лексем. Статья охватывает три семейства: метафорические переносы названий продуктов питания, коммуникативно-прагматические продукты в процессе общения с общественностью в правовых стилях речи (художественная, публицистическая речь). Статистические данные доказывают, что названия продуктов питания не являются материальными благами, а представляют собой лингвокультурные ядра, регулирующие социальные отношения. **Ключевые слова:** Паремология, метафора, языковая культура, функциональный стиль, прагматика, интеллектуальные лексеммы, коммуникативный язык, образность

## KIRISH

Til xalqning madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashini aks ettiruvchi ko'zgu dir. Maqollar esa bu ko'zguning eng yorqin qirralari hisoblanadi. O'zbek xalqi azaldan mehmondorchilik, dehqonchilik va pazandalik an'analariga boy bo'lgani sababli, milliy maqollarimizda oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq obrazlar keng o'rin egallagan.

Oziq-ovqat nomlari (gastronomik leksemalar) ishtirokidagi maqollarni o'rganish nafaqat filologik, balki ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ham ega. Chunki "non", "osh", "tuz", "shakar", "yog'" kabi so'zlar maqol tarkibida o'zining birlamchi denotativ

ma'nosidan uzoqlashib, chuqur konnotativ va metaforik ma'nolarni kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — ushbu maqollarning uslubiy imkoniyatlari va nutqdagi funksional xususiyatlarini ilmiy asoslab berishdir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek paremiologiyasining nazariy asoslari Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, T.Mirzayev kabi olimlar tomonidan yaratilgan. Xususan, "O'zbek xalq maqollari"ning ko'p jildli nashrlari materiallar to'plashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.[1]Lingvokulturologik jihatdan maqollarni tadqiq etishda N.Mahmudov va Sh.Safarovlarning ishlarida til va madaniyat aloqasi, xususan, milliy mentalitetning tilda in'ikosi masalalari yoritilgan. Dunyo tilshunosligida oziq-ovqat metaforalari (gastronomic metaphors) Koveches va Lakoff kabi kognitiv tilshunoslarning nazariyalari asosida o'rganilgan. Biroq, aynan o'zbek oziq-ovqat maqollarining funksional-uslubiy va pragmatik tahlili hali ham tizimli tadqiqotlarga muhtoj soha bo'lib qolmoqda.[2] Xalq maqollaridagi badiiy tasvir vositalari va ko'chim turlari haqida D.Abdurahimovaning maqolasida atroflicha yoritilgan. Badiiy san'atlar, tasvir vositalari va usullarining xalq maqollari poetikasidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Maqolada majoz, metafora, metonimiya, jonlantirish kabilar misollar bilan ochib berilgan.[3]

### ASOSIY QISM

#### **Maqollarda oziq-ovqat nomlarining metaforik va obrazli qo'llanilishi**

Maqollarda metafora tushunchasi abstrakt tushunchalarni aniq, hammatushunadigan predmetlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari inson hayoti uchun eng zaruriy ehtiyoj bo'lgani uchun, ular eng murakkab insoniy munosabatlarni ifodalashda metaforik asos bo'lib xizmat qiladi.**Non metaforasi:** Non — hayot, baraka, mehnat va huquq ramzi. "*Noni butun*" iborasi

moddiy va ma'naviy kamchiligi yo'q insonga nisbatan ishlatiladi. "Nonini yarimta qilmoq" metaforasi esa bironing rizqiga to'sqinlik qilish yoki daromadini kamaytirish ma'nosini beradi. Xalq maqollari poetikasida ko'zga tashlanuvchi tovushlar uyg'unligi (alliteratsiya, assonans, anafora), ma'no ko'chish turlari (sinekdoxa, metafora, metonimiya, kinoya, majoz), badiiy-stilistik vositalar (takror, qisqartirish) kabilarning qo'llanishi ularning badiiy-estetik ta'sirchanlik vazifasini yanada oshiradi, kishilar xotirada oson saqlanib qolishiga yordam beradi. "Non sindirgan joyda xiyonat bo'lmas." Non bu yerda do'stlik va ahd timsoli. Birga non yeyish —ishonch belgisi. Birga non yeyish -ishonch va vafo belgisi hisoblanadi. Moddiy harakat (non sindirish) ijtimoiy-axloqiy munosabatni ifodalaydi. [4] **Asal va zahar kontrasti:** Inson nutqi va xulq-atvori ko'pincha ta'm bilish a'zolari orqali metaforizatsiya qilinadi. "Til - asal, dil - zahar" maqolida insonning munofiqligi "shirin" va "achchiq" ta'mlar qarama-qarshiligi orqali obrazli ifodalangan. "Asalning ham ozi shirin" metaforasi **har qanday yaxshi narsa, ne'mat yoki his-tuyg'uning (mehr, muhabbat, sovg'a) me'yori bo'lishi kerakligini** anglatadi. Hatto eng yoqimli narsa ham haddan oshsa, zararli yoki yoqimsiz bo'lib qolishi mumkinligiga ishora qiladi. **Meva obrazi:** "Pishgan qovun po'stlog'idan ma'lum" maqolida mevaning holati insonning ichki dunyosi va tarbiyasiga ko'chirilgan. Bu yerda qovunning pishganligi - yetuklik, po'stlog'i esa - tashqi xulq-atvor metaforasidir. "Uzumning yaxshisini it yeydi". Hayotda shunday bo'ladiki, yaxshi, aqlli, husni-jamolli qiz yomon, bad'fe'l odamning ayoli bo'ladi. "Olma pish, og'zimga tush" metaforasi ishyoqmas, dangasa, o'zi mehnat qilib kun ko'rishga erinadigan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

**Maqollarning nutqdagi funksional uslublarga ko'ra qo'llanishi.** Maqollar funksional uslublar tizimida universal xarakterga ega bo'lsa-da, har bir uslubda o'ziga xos vazifani bajaradi: **So'zlashuv uslubida:** Bu uslubda oziq-ovqat maqollari nutqni tejamli qilish va emotsionallikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, kundalik muloqotda uzoq tushuntirishdan ko'ra "Guruch kurmaksiz bo'lmas" deyish orqali har qanday jamoada yomon odamlar bo'lishi mumkinligi lirik tarzda ifodalanadi. Yozuvchi va shoirlar maqollardan personaj xarakterini ochish yoki asar

g'oyasini umumlashtirishda foydalanadilar. Abdulla Qodiriy, O'tkir Hoshimov asarlarida "osh", "tuz", "non" bilan bog'liq maqollar xalqchil ruhni ta'minlash uchun qo'llanilgan. "Non topgan - jon topar." Bu maqolda "non" tiriklik, hayot, rizq ramzi sifatida ishlatilgan. Non - o'zbek xalq tafakkurida muqaddas timsol. "Jon topar" iborasi esa yashash imkonini anglatadi. Bu yerda metafora qo'llangan: non -hayot manbai sifatida talqin qilinadi.

Maqol mehnat va halol rizqning qadri haqida falsafiy xulosa beradi. "Oshing halol bo'lsa, ko'ngling xotirjam." "Osh" so'zi bu yerda shunchaki taom emas, balki halol mehnat mahsuli ma'nosini beradi. Osh - hayotiy farovonlik va rizq ramzi.

"Ko'ngil xotirjamligi" - ruhiy osoyishtalik. Bu maqolda ramziy ma'no kuchli: halollik inson qalbiga tinchlik olib keladi. "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar." "Sut" - poklik, ona mehrining timsoli. Bu yerda sinekdoxa va ramziy obraz mavjud: sut orqali insonning tarbiyasi va tabiati nazarda tutiladi. Maqol insonning asl xulqi o'zgarishini badiiy ifodalaydi. "Qatiq ichgan qozonini yashirmas." Bu maqolda "qatiq" ayb yoki sir ramzi sifatida ishlatilgan. Qatiq ichgan odam qozonni yashiradi - ya'ni aybi bor kishi dalilni berkitishga urinadi.

Bu yerda kinoya va obrazlilik mavjud. "Asal" - shirinlik, yoqimlilik ramzi. Bu maqolda ochiq metafora mavjud: yoqimli so'z asalga qiyoslangan.

Tilning ta'sir kuchi shirinlik orqali obrazli ifodalangan. Oziq-ovqat nomlari qatnashgan maqollar: Metafora (non - hayot, asal - shirin so'z) Ramziy ma'no (sut - poklik, osh - halollik). Kinoya (qatiq - yashirin ayb) Sinekdoxa (sut orqali tarbiya nazarda tutiladi) O'zbek xalq og'zaki ijodida oziq-ovqat nomlari kundalik hayotdan olingan sodda obrazlar orqali chuqur falsafiy mazmunni ifodalaydi. Bu esa maqollarning xalqchil, obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. [5]

**Publitsistik uslubda:** Gazeta va jurnal maqolalarida, ko'rsatuvlarda maqollar sarlavha sifatida yoki muallif pozitsiyasini tasdiqlash uchun ishlatiladi. "Sariq moydek saqlamoq" kabi maqollar milliy qadriyatlarni asrash mavzusidagi publitsistik matnlarda tez-tez uchraydi

**Nutq uslublarida oziq-ovqat nomlari qatnashgan maqollar jadvali**

№	Maqol	Oziq-ovqat nomi	Soʻzlashuv uslubi	Publisistik uslub	Badiiy uslub	Ilmiy uslub
1	Non topgan jon topar	Non	Kundalik hayotda mehnatni ragʻbatlantirish uchun ishlatiladi	Mehnat va iqtisodiy farovonlik haqida maqolalarda	Non hayot ramzi sifatida metaforik qoʻllanadi	Nonning ijtimoiy-madaniy timsoli sifatida tahlil qilinadi
2	Oshing halol boʻlsa, koʻngling xotirjam	Osh	Halollikka undashda ishlatiladi	Halol mehnat targʻibotida	Osh rizq va poklik ramzi	Axloqiy konsept sifatida oʻrganiladi

	Ma qol	Oz iq- ovqat nomi	So'zlas huv uslubi	Publisisti k uslub	Badiiy uslub	Ilmiy uslub
3	Sut bilan kirkirgan jon bilan chiqar	Sut	Tarbiya haqida nasihatda	Ma'naviy tarbiya mavzusida	Sut - poklik va ona mehri timsoli	Mentalitet va xarakter barqarorligi sifatida izohlanadi
4	Qati q ichgan qozonini yashirma s	Qa tiq	Aybi bor odamga kinoya	Korrupsiy a yoki yashirin xatti-harakatlar tanqidida	Kinoy aviy obraz sifatida	Frazeologi k birlik sifatida tahlil qilinadi
5	Shir in so'z - asal	As al	Yaxshi muomala haqida	Nutq madaniyati targ'ibotida	Asal - yoqimlilik metaforasi	Metaforik model sifatida izohlanadi
6	Och qornim - tinch qulog'im	Qo rin (ovqat bilan bog'liq)	Qanoat ni ifodalashda	Ijtimoiy tengsizlik muhokamasida	Ichki ehtiyoj obrazida	Antropotse ntrik yondashuvda o'rganiladi
7	Tuz totgan joyingga xiyonat qilma	Tu z	Sadoqa haqida t ogohlantiris h	Vatanparv arlik mavzusida	Tuz - sadoqat va rizq ramzi	Madaniy kod sifatida talqin qilinadi

№	Maqol	Oziq-ovqat nomi	Soʻzlashuv uslubi	Publisistik uslub	Badiiy uslub	Ilmiy uslub
8	Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber	Tuz	Hurmat va minnatdorlik ifodasi	Axloqiy qadriyatlar targʻibotida	Tuz - baraka va rishta timsoli	Etno-lingvistik birlik sifatida

Oziq-ovqat nomlari qatnashgan maqollar: Soʻzlashuv uslubida - nasihat, kinoya va ragʻbatlantirish vazifasini bajaradi. Publisistik uslubda - ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy gʻoyalarni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Badiiy uslubda -metafora, ramz, kinoya orqali obrazlilik hosil qiladi. Ilmiy uslubda -konsept, lingvokulturologik birlik, etnomadaniy timsol sifatida tahlil qilinadi[6]

### Oziq-ovqat nomli maqollarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari

Maqolning nutqdagi pragmatik kuchi uning tinglovchiga koʻrsatadigan taʼsiridadir. Oziq-ovqat maqollari quyidagi pragmatik funksiyalarni bajaradi: Verifikatsiya (Tasdiqlash): (Soʻzlovchi oʻz fikrini isbotlash uchun xalq tajribasiga tayanadi. "Oshning tuzi - mehmondoʻstning yuzi" maqoli mehmondoʻstlik odobini taʼkidlashda pragmatik vosita boʻladi. Ittifaq va sadoqat (Illokutiv maqsad): "Tuz-nasiba" tushunchasi orqali insonlarni bir-biriga bogʻlash. Ikki kishi orasidagi munosabat buzilsa, "Birga ichilgan tuz-namak haqi" deb eslatish pragmatik ogohlantirish vazifasini oʻtaydi. Didaktik (Tarbiyaviy) taʼsir: "Egan ogʻiz

uyalar" maqoli pragmatik jihatdan "yaxshilikka yaxshilik qaytarish kerak" degan buyruq (imperativ) ma'nosini tashiydi.

## XULOSA

Oziq-ovqat nomlari ishtirokidagi maqollar o'zbek tilining boy paremiologik xazinasini tashkil etadi. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, gastronomik leksemalar maqollar tarkibida shunchaki ozuqa ma'nosida emas, balki insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi semantik kodlar sifatida namoyon bo'ladi. Uslubiy jihatdan bu maqollar nutqning ekspressivligini va obrazlilikini ta'minlaydi. Funktsional jihatdan so'zlashuv va badiiy nutqda yetakchi o'rin tutadi. Pragmatik jihatdan esa suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish, tarbiyalash va ijtimoiy normalarni eslatishning samarali quroli hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarida... – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2008.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
6. Dilnavoz Abdurahimova O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili
7. Ganjiyevna, Y. K. (2025). MAHMUD KOSHG'ARIYNING" DEVONU LUG'AT-TURK" ASARIDA KELTIRILGAN O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK TAHILILI. *TADQIQOTLAR*, 75(2), 220-224.